


ISSN:
3030-3311



Volume|3 Issue|4 April 2025

JCWS


Journal of Contemporary
World Studies



2023

<https://bestjournalup.com/index.php/jcws>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 | APRIL | 2025




JCWS

SINOV BALANSI BO'YICHA DEBITORLIK QARZLARI HISOBASH ISHARINI TAKOMILSHTIRISH

Safarov Otabek Abdulla o'g'li

International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi

e-mail: otabek1272@gmail.com



ANNOTATION:

Mazkur maqolada Olinadigan hisobvaraqlar boshqa kompaniyalarning pul mablag'lariga, tovarlar, xizmatlar va boshqa pul ifodasida bo'lmagan aktivlarga bo'lgan da'volarni o'z ichiga kiritadi. Olinadigan hisobvaraqlarni to'lov muddati va qarzni olishni kutilayotgan sanasiga qarab, debitorlik qarzlari joriy va uzoq muddatli ajratiladi. Odatda debitorlik qarzlari hisobvaraqlar bilan tasdiqlanadi. "Olinadigan veksellar" nomli balans moddasi rasmiy qarzi majburiyatlari bilan tasdiqlanadi.

KEYWORDS:

debitorlik qarzlari, pul mablag'lariga, hisob varaqlari, dastlabki tan olish, baholash, amortizatsiya, muddatli to'lov, hisob varaqlari, fakturalar.

Accepted Date:

April 30, 2025,

Published Date:

May 10, 2025

Journal Website:

<https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/view/jisn5>

License



This work is licensed under

a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

Daromadni olish kapitalni shakllantirish muhim manbai va debitorlik qarzlarni asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, sotilish aksariyat hollarda bankdagi hisob-kitob varag'iga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sotish natijasida vujudga kelgan debitorlik qarz boshqa kompaniyani aktivlariga da'vogarligini bildiradi. Debitorlik qarzlari bilan bog'lik bo'lgan asosiy buxgalteriya operatsiyalari ularni tan olish va o'lchash hisoblanadi. Daromad va u bilan bog'lik bo'lgan olinadigan hisobvaraqlar, faqat ularning to'lanishi ehtimoli mavjud bo'lgan hollarda aks ettiriladi.

Debitorlik qarzlarni tan olinishi va o'lchanishi

Olinadigan hisobvaraqlar kompaniyaning odatiy ishlab chiqarish faoliyati davomida mijozlarga sotilgan tovarlar va xizmatlar uchun qarz summalarini tashkil qiladilar. Bu hisobvaraqlar, savdo bo'yicha olinadigan hisobvaraqlar, deb ham aytiladi, hisobvaraqa-faktura yoki boshqa hujjatlar bilan, ayrim hollarda esa oddiy yozma qarz majburiyatlari bilan ham tasdiqlanadi. Bu olinadigan hisobvaraqlar balans sanasidan keyingi bir yil yoki kompaniyaning operatsion tsikli davomida undirib olinadigan summani o'z ichiga oladi (qaysi biri uzunroq bo'lishiga qarab). Odatda to'lov muddati 30 kundan 60 kungacha bo'lgan muddat hisoblanadi, ushbu muddat o'tgandan keyin olinadigan hisobvaraqlar muddati o'tgan deb hisoblanadi. Mijozlar uchun kredit qoldig'iga ega bo'lgan ayrim olinadigan hisobvaraqlar (oldindan to'lash yoki ko'prok to'lash natijasida) yangidan tasniflanishi kerak, ular bo'yicha majburiyatlar sifatida hisobot topshirilishi kerak. Bu kredit qoldiq olinadigan hisobvaraqlarga qo'shilmaydi.

Debitorlik qarzlari ular bilan bog'liq daromad tan olingandagina e'tirof etiladi. Debitorlik qarzlari dastlabki qiymati bo'yicha

baholanadi va shubhali qarzlari, pul chegirmalari va qaytarilgan sotilgan tovarlar summasiga tuzatish qilinadi. Buning natijasida olinadigan hisobvaraqlarning sof tannarxi aniqlaniladi. Odatda foizlar, sotish va pullarni olish orasidagi muddat qisqa bo'lgani uchun e'tiborga olinmaydi.

Pul chegirmalari (sotuvdan chegirmalar). Ko'pincha kompaniyalar agar to'lov ma'lum muddatda amalga oshirilsa, hisobvaraqa-fakturaning umumiy bahosini kamaytiradigan pul chegirmalarini taklif qiladi. Pul chegirmalari savdo hajmini ko'paytirish va mijozni to'lovni tezroq amalga oshirishga undaydi. Ular shubhali qarzlarni kamaytirishga ham yordam beradilar.

Masalan, "A" kompaniyasi o'z mijozlari "B" kompaniyasiga "B" kompaniyasi tovarlar uchun 10 kun ichida to'lovni amalga oshirish sharti bilan 5%li chegirmani taklif etdi. To'lovning eng uzoq muddati – 30 kun (odatda qo'llaniladigan belgi 5/10, p/30.). To'lovning dastlabki summasi 10,000. Tovar 1 iyulda jo'natilgan. "A" kompaniyasida buxgalteriya yozuvlari:

01.07. Olinadigan hisobvaraqlar
10,000

Sotishdan olingan daromad
10,000

Sotilgan tovarlarning tannarxi
10,000

Tovarlar
10,000

Xaridor chegirmadan foydalandi va tovarning pulini 9 iyulda o'tkazdi:

09.07. Pul mablag'lari
9,500

Sotuv bo'yicha chegirmalar
500

Olinadigan hisobvaraqlar
10,000

Savdo chegirmalari (narxidan chegirmalar)

Odatda ulgurji savdoni kataloglarida yagona hisobvaraqa-faktura narxi chop etiladi. Savdo chegirmalari har-xil mijozlar

guruhlariga, chakana va ulgurji sotuvchilarga, har xil hajmdagi sotiladigan tovarlarning baholarini reklama qilishning usulidir. Keyinchalik, mijozga va buyurtirilgan mahsulot hajmiga ko'ra har xil chegirmalar e'lon qilinishi mumkin. Bunday savdo chegirmalari oxirgi sotish bahosini kamaytiradilar. Masalan, narxi 50 sh.b. bo'lgan tovar bo'yicha, agar u 1,000 donadan ortiq hajmda sotilib olinsa 40%li chegirma e'lon qilindi. Shunday qilib, bir donasi uchun baho 30 sh.b.ni tashkil etadi ($50 \times 0,6$). Chegirmaning foizi buyurtma hajmiga karab, 50 sh.b.dagi asosiy bahoni o'zgartirilmay, o'zgarishi mumkin. Pullik chegirma qo'llaniladigan umumiy baho - bu hisobvaraqa-faktura bahosidan chegirilgan savdo chegirmasidir.

Sotilgan tovarlarning kaytarilishi

Ma'lum sohalarida raqobatbardoshlikni saqlash uchun, ma'lum bir davr ichida tovarlarni qaytarishning kafolatli huquqi marketing rejasinining asosiy qismidir. Qaytarilish mahsulotning nuqsonlari yoki boshqa kamchiliklari sababli sodir bo'lishi mumkin. Xaridor tovarni o'zida qoldirishi uchun, sotuvchi xaridorga qarzning miqdorini kamaytirishni taklif etadi. Sotilgan tovarning qaytarilishi va u uchun qoplash ma'lum sohalarida, jumladan chakana savdoda va kitob nashriyotida muhim o'rinni egallaydi.

Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va ular uchun tovonlar sof olinadigan hisobvaraqa hamda sof sotishni kamaytiradi. Masalan, 2008 yil kompaniyaga qaytarilgan tovarning miqdori 16,000 tashkil etdi. Yil davomida qaytarishning anik miqdorini aks ettirish uchun buxgalteriya o'tkazmasi quyidagicha bo'ladi:

<i>Tovarning kaytarilishi</i>	16,
000	
<i>Olinadigan</i>	<i>hisobvaraqlar</i>
16, 000	
Shubhali debitorlik karzlar	

Kompaniyaning to'lov qobiliyatini baholash tizimi naqadar takomillashgan va samarali bo'lishiga qaramasdan, kompaniyada kreditga sotib olgan xaridlarni to'lamagan mijozlar topiladi. Kreditga sotishda shubhali olinadigan hisobvaraqlar mavjud bo'lishi muqarrar. Kompaniyalar juda konservativ (sotuvning tushib ketishiga olib keladigan) va juda erkin (shubhali olinadigan hisobvaraqlarning ko'payishiga olib keladigan) bo'lmagan kredit siyosatini ishlab chiqishga urinadi. Mijozlarning oldingi to'lovlari, moliyaviy holati hamda daromadlarning olish istiqboli kredit berish bo'yicha qaror qabul kilinishida asosiy omildir.

Agar shubhali olinadigan hisobvaraqa ehtimoli bo'lsa va ularni baholanishi mumkin bo'lsa, unda taxmin qilingan shubhali qarzni hisobda aks ettirish kerak. Muvofiqlik tamoyili shubhali olinadigan hisobvaraqlardan zararlar sotish amalga oshirilgan hisobot davrida tan olinishini talab qiladi. Taxmin qilingan olinadigan hisobvaraqlar *shubhali qarzlarga xarajatlar kabi*, odatda operatsion faoliyat xarajatlari sifatida, qo'pincha savdo xarajatlari (sotish xarajatlari) kabi aks ettiriladi.

Agarda shubhali olinadigan hisobvaraqa kutilmayotgan bo'lsa, u holda daromadning yoki olinadigan hisobvaraqlarni tuzatishlar kiritish zaruriyati bo'lmaydi, unda debitorlik qarz esa shubhali qarzning tan olingan davrida hisobdan chiqariladi. Bu yondoshuv *bevosita hisobdan chiqarish usuli* deyiladi.

Shubhali debitorlik qarzining vujudga kelishi va uning hisobi

Agar shubhali olinadigan hisobvaraqa ehtimol bo'lishi mumkin va hisoblanishi mumkin bo'lsa, hisobot davrining oxirida tuzatish yozuvi qilinish kerak. Masalan, agar kompaniya 9,000 summaga shubhali olinadigan hisobvaraqa kutayotgan bulsa, shubhali qarz bo'yicha xarajatni aks ettirgan quyidagi tuzatuvchi o'tkazma qilinadi:

Shubhali qarzlar bo'yicha xarajatlar
9,000

Shubhali karzlar bo'yicha rezerv
9,000

Shubhali qarzlarning rezervi hisobvarag'i olinadigan hisobvaraqlarga kontrhisobvaraqlar va oldingi o'tkazma qilish vaqtida shubhali olinadigan hisobvaraqlar manbaining aniqlanishi qiyin bo'lganligi sababli qo'llaniladi. Sof debitorlik qarzi (shubhali karzlar rezervini chiqarib tashlangani) olinadigan hisobvaraqlarning ko'zda tutilgan sof tannarxi bo'lib hisoblanadi. Boshqa ikki holatni e'tiborga olish kerak: (1) aniq olinadigan hisobvaraqlarning hisobdan chiqarish va (2) avval hisobdan chiqarilgan olinadigan hisobvaraqlarning kelib tushishi.

Shubhali qarzlarni tuzatish bo'yicha o'tkazma kelgusi shubhali olinadigan hisobvarag'i uchun shubhali qarzlarga rezerv yaratadi. Ba'zi olinadigan hisobvaraqlar shubhali qarz deb tan olinganda, rezervning bu qismi kerak bo'lmaydi. Avval esa shubhali qarzlarni baholash yuzasidan bo'lg'usi shubhali debitorlik qarzlarni iqtisodiy ta'sirini ko'zda tutgan o'tkazmalar berilgan. Olinadigan hisobvaraqlarning olish ehtimoli bo'lmaganida hisobdan chiqarish sodir bo'ladi. Shunday qilib, ma'lum debitorlik qarzni hisobdan chiqarilishi, agar debitorlik qarzning summasi ko'zda tutilgan summadan oshib ketmasa, aktivlarni umumiy summasini kamaytirmaydi. Debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish uni olish ehtimoli bo'lmagandagina amalga oshiriladi.

Masalan, janob R.Knoksdan 1,000 summalik debitorlik qarzlarni olishdan voz kechgan kompaniya quyidagi o'tkazmani amalga oshiradi:

Ma'lum olinadigan hisobvaraqlarning hisobdan chiqarish bo'yicha o'tkazma:

Shubhali karzlarning rezervi

1,000

R.Knoksning debitorlik karzlari 1,000

Yuqoridagi o'tkazma daromadga yoki to'lanmagan debitorlik qarzning sof summasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Hisobdan chiqarish bo'yicha o'tkazma tashkilot debitorlik qarzni shubhali deb tan olgandagina amalga oshiriladi.

Ba'zan, hisobdan chiqarishdan keyin debitorlik qarz summalarini kelib tushishi mumkin. Bu mijozning moliyaviy holati yaxshilanganida sodir bo'lishi mumkin. Bu holda pul mablag'larining olinishi kabi aks etiladigan qarzning qayta tiklash bo'yicha teskari o'tkazma qilinadi.

Faraz qilaylik, oldingi hisobdan chiqarish o'tkazmasi qilinganidan ma'lum vaqt o'tganidan keyin R.Knoks 600 summalik debitorlik qarzini to'lashga layokatli. Hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzning qoplanishi va qayta tiklanishi bo'yicha o'tkazma:

R.Knoksning debitorlik qarzi 600

Shubhali qarzlar rezervi
600

Pul mablag'lari 600

R.Knoksning debitorlik qarzi
600

Olinadigan hisobvaraqlarning debeti va krediti keyingi ilovalar uchun qarzlarning qisman tiklash va qoplashga oid summalarini aks ettiradi.

Shubhali qarzlarni baholash

Qaysi hisobvaraqlar to'lanmasligini oldindan bilish mumkin emasligi munosabati bilan, moliyaviy hisobotni tuzish vaqtida kutilayotgan zararlarga ehtimoliy ravishda muvofiq bo'lgan summalarini hisoblash lozim. Shubhali qarzlarni baholash bo'yicha ikki umumiy usul mavjud:

- sof kreditga sotishdan foiz usuli (foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot);

- to'lov muddati bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobga olish usuli (buxgalteriya balans).

Birinchi usulning maqsadi shubhali debitorlik qarzlari natijasida paydo bo'ladigan xarajatlarni aniq o'lchash

hisoblanadi. Ikkinchi usulni maqsadi bo'lib debitorlik qarzlarni sof qiymatini o'lchash hisoblanadi.

Sof kreditga sotishdan foiz usuli

Avvalgi yillarning ma'lumotlariga asoslanib sof kreditga sotish va shubhali qarzlardan olingan haqiqiy zararlarni

o'rtacha foizi hisoblanadi. So'ngra shubhali qarzlarni qiymatini aniqlash maqsadida ushbu foiz hisobot davridagi haqiqiy sof sotish qiymatiga qo'llaniladi.

Quyida "Xaas" firmasining 2009 yil oxiriga hisobvaraqlardagi ma'lumotlar keltirilgan:

Sotish	Sotilgan tovarlarning qaytarilishi
645,000	40,000
Sotishdan chegirmalar	Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv
5,000	3,600

Faraz qilaylik, shubhali qarzlarni bo'yicha zararlarni oxirgi uch yil ichida quyidagilarni tashkil etdi:

Yil	Sotish	Shubhali qarzlarni bo'yicha zararlarni	Foiz
2006	520,000	10,200	1.96
2007	595,000	13,900	2.34
2008	585,000	9,900	1.69
Jami	1,700,000	34,000	2.00

Kompaniyaning rahbariyati, sotishdagi shubhali qarzlarning ulushi 2 % bo'lishini taxmin qiladi. Shunday qilib, 2010 yilga shubhali qarzlarni summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$0,02 \times (645,000 - 5,000 - 40,000) = 0,02 \times 600,000 = 12,000$$

Hisobning natijalari quyidagicha yoziladi:

2009 yil 31 dekabr

Shubhali qarzlarni bo'yicha xarajatlar
12,000

Shubhali qarzlarni rezervi
12,000

Shunday qilib, "Shubhali qarzlarni rezervi" hisobvarag'i bo'yicha qoldiq 15,600 ni tashkil etadi. Bu raqam 2009 yil tovarlar sotishdan to'lanmagan hisobvaraqlar bo'yicha taxmin etilgan qarzlarni tashkil etgan. 12,000 dan va o'tgan yillarning 3,600lik to'lanmagan hisobvaraqlardan iborat bo'ladi. Oxirgi summa o'tgan yillar shubhali qarzlarga muvofiq keltirilmagan.

Kreditga sotish usuli moliyaviy - xo'jalik faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotga tayanadi. Ushbu usul bo'yicha debitorlik qarzlarning sof tannarxini doimo hisoblab bo'lmaydi. Ushbu usulni kontseptual asosi bo'lib muvofiqlik tamoyili hisoblanadi, chunki shubhali qarz sotishga asoslangan bo'ladi. U ishlatishda oddiy va tejamlidir. Kreditga sotishga qo'llaniladigan foiz muntazam ravishda yangilanib turishi kerak.

To'lov muddati bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobga olish usuli

Bu usul sof debitorlik qarzining buxgalteriya qoldig'iga asoslangan. U kutilayotgan shubhali qarz bo'yicha foizni aniqlash uchun avvalgi ma'lumotlardan foydalanadi. Ushbu usulning asosi olinayotgan hisobvaraqlarning sof tannarxi - olinishi kutilayotgan pul miqdorini baholashdan iborat. Kreditga sof sotishdan foiz usuliga nisbatan, to'lov muddati bo'yicha olinadigan hisobvaraqlarni

baholash usuli, debitorlik qarzining sof tannarxini hisoblash uchun kerak bo'lgan shubhali qarzlarning rezervini yakuniy qoldig'ini hisoblashga imkon beradi. Shubhali qarzlarning rezervidagi joriy qoldiq so'ngra talab qilinadigan qoldiqqa muvofiq bo'lishi uchun tuzatish o'tkazmasi yordamida yangilanadi. Shubhali qarzlarga xarajatlar ushbu tuzatish summasiga debetlanadi.

Shubhali qarzlarning bo'yicha rezervini kerakli qoldiqni hisoblash uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- umumiy debitorlik qarzlarga asoslangan yagona qurama stavkasi;
- alohida olinadigan hisobvaraqlar muddatiga asoslangan bir necha stavkalar.

1-jadval.

«Mayer» Kompaniyasi

2022-yil 31-dekabr holatiga olinadigan hisobvaraqlarning to'lov muddati bo'yicha tahlili

Xaridor	Olinadigan hisobvaraqlar jami	To'lov muddati kelmagan	1 kundan 30 kungacha muddati o'tgan	31 kundan 60 kungacha muddati o'tgan	61 kundan 90 kungacha muddati o'tgan	90 kundan ortiq muddati o'tgan
A. Arnold	150		150			
M. Benua	400			400		
Dj. Konnoli	1.000	900	100			
R. Rikardo	250				250	
Boshqalar	42.600	21.000	14.000	3.800	2.200	1.600
Jami	44.400	21.900	14.250	4.200	2.450	1.600
Shubhali qarzlarning foizi		1.0	2.0	10.0	30.0	50.0

Yuqorida berilgan misolda, to'lov muddatiga muvofiq to'lanishi kerak bo'lgan kompaniyaning hisobvaraqlari aks ettirilgan. Har bir olinadigan hisobvaraqlar quyidagicha turkumlanadi: to'lov muddati kelmagan, muddati 1 kundan 30 kungacha o'tgan, muddati 31 kundan 60 kungacha o'tgan, muddati 61 kundan 90 kungacha o'tgan, yoki muddati 90 kundan o'tgan. Har bir guruh uchun oldindan istiqbollashtirilgan shubhali qarzlarning rezervi ko'rsatiladi.

2-jadval.

«Maueg» kompaniyasi 2023 yil 31 dekabrda kutilayotgan shubhali qarzlarning

	Summa,	Shubhali sanalgan qarzlarning foizi	Shubhali qarzlarning rezervi
Muddati yetib kelmagan	21,900	1	219
01-30 kun	14,250	2	285
31-60 kun	4,200	10	420
61-90 kun	2,450	30	735
90 kundan ortiq	1,600	50	800
	44.400		2.459

Mazkur jadvalida keltirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki muddati hali yetib kelmagan qarzlarning faqat 1%ni, muddati 1 kundan 30 kungacha o'tib ketganlarning esa 2% to'lanmasdan qolishi mumkin. Mavjud tajribadan kelib chiqqan holda muddati 31-60 kungacha, 61-90 kungacha, va 90 kundan oshib ketgan olinadigan hisobvaraqlar bo'yicha muvofiq ravishda 10%, 30%, 50% to'lanmaydi. Jami bo'yicha 44,400 bo'lgan summadan 2,459 to'lanmaydi. Faraz qilaylik, Mayer kompaniyasining "Shubhali karzlar rezervi" hisobvarag'ida joriy kredit qoldigi 800 tashkil etadi. Shunday kilib, shubhali karzlar bo'yicha taxmin qilingan xarajatlar miqdori bir yilda 1,659ni tashkil etadi.

Hisoblar kuyidagicha kilinadi:

Taxmin qilingan shubhali qarzarlar
2,459

Chegirilgan: "Shubhali karzlar rezervi" hisobvarag'ining kredit qoldigi
800

Shubhali karzlar bo'yicha xarajatlar
1,659

Agar "Shubhali karzlar rezervi" hisobvarag'i debet qoldig'iga ega bo'lsa, uning miqdori taxmin qilingan shubhali qarzga qo'shilishi kerak.

Shubhali qarzarlar bo'yicha xarajatlar hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

2009 yil 31 dekabr

Shubhali karzlar bo'yicha xarajatlar
1,659

Shubhali karzlar zaxirasi
1,659

Ikki usul ham - kreditga sof sotishdan foiz usuli va to'lov muddati bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobga olish usuli - birga qo'llanilishi mumkin. Ularning har biri boshqasini tasdiqlash uchun qo'llaniladi. Hisobdan chiqarilgan har yilgi olinadigan hisobvaraqlar qiymati kamdan-kam hollarda "Shubhali karzlar rezervi" hisobvarag'ining kreditida aks ettirilgan taxmin qilingan miqdorga teng bo'ladi. Agar hisobdan chiqarilgan hisobvaraqlar bo'yicha summa

shubhali karzlar rezervi oldindan belgilangan miqdordan kamroq bo'lsa, "Shubhali qarzarlar rezervi" hisobvarag'i kredit qoldig'iga ega bo'ladi. Agar hisobdan chiqarilgan hisobvaraqlar bo'yicha summa shubhali qarzarlar rezervidagi oldindan belgilangan summasidan yuqoriroq bo'lsa, "Shubhali karzlar rezervi" hisobvarag'i debet qoldig'iga ega bo'ladi. Joriy yil shubhali qarzning dastlabki miqdorini aniqlash uchun qilingan tuzatish yozuvi hisobot davrining oxirida debet qoldig'ini bekor qiladi.

Ba'zida kelgusidagi sotuvlarni istiqbollashtirishda yo'l qo'yilgan xatolar natijasida mijozlar hisobvaraqlar bo'yicha ma'lum summalarini ko'proq to'lab qo'yishi mumkin. Agar debitorlik qarzlarni ro'yxatga olish jurnallarida xaridorlardan olinadigan tahliliy hisobvaraqlar bo'yicha kreditli qoldiq mavjud bo'lsa, bu "Olinadigan hisobvaraqlar" hisobvarag'ining qoldig'iga ta'sir etishi kerak emas. Balansda xaridorlar bo'yicha kredit qoldig'iga ega hisobvaraqlar, qisqa muddatli majburiyatlar sifatida aks ettirilishi kerak, chunki kompaniya pulni keragidan ko'proq miqdorida to'lab yuborgan xaridorlar oldida javobgar hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, "Olinadigan hisobvaraqlar" hisobvarag'ining qoldig'i yoyilgan holda, ya'ni alohida debet va kredit bo'yicha ko'rsatilishi kerak.

"Olinadigan hisobvaraqlar" balans moddasida odatiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida doimiy xaridorlarga sotuvlar aks ettiriladi. Agar ssudalar berilsa yoki sotuvlar boshqa turdagi shaxslarga, masalan xodimlarga, kompaniyaning mansabdor shaxslar yoki birgalikda mulkka egalik qiluvchilarga amalga oshirilsa, ular balans aktivida "Xodimlar va mansabdor shaxslarning debitorlik qarzlari" moddasida aks ettirilishi kerak.

XULOSA.

Foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobot (ya'ni, daromad va xarajatlarni o'z ichiga olgan moliyaviy hisobot) har bir

tashkilotning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda asosiy hujjatlardan biridir. Ushbu hisobot orqali kompaniyaning daromadlari, xarajatlari va ular orasidagi farq (foyda yoki zarar) aniqlanadi. Hisobotni takomillashtirish, kompaniyaning moliyaviy holatini yanada to'g'ri aks ettirish va strategik qarorlarni qabul qilishda muhim omil hisoblanadi.

Shaffoflikni oshirish - Foyda yoki zarar hisobotlari shaffof va aniq bo'lishi kerak. Xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi farqni tushunish uchun har bir tarkibiy qismini batafsil yoritish muhim. Hisobotda "yashirin" yoki noaniq qatorlar bo'lmashligi kerak.

Hisobotda barcha daromadlar va xarajatlar turlari aniq ko'rsatilishi zarur. Masalan, operatsion daromadlar, moliyaviy daromadlar, boshqa daromadlar va operatsion xarajatlar, soliqlar va boshqa to'lovlar kabi bo'limlar alohida bayon qilinishi lozim.

Qo'shimcha axborotning kiritilishi - Foyda yoki zarar hisobotlarida har bir muhim element bo'yicha qo'shimcha izohlar va tushuntirishlar berish zarur. Masalan, qaysi turdagi xarajatlar oshdi, bu o'zgarishning sabablari, biror xarajat yoki daromadning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qildi, buning kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi kabi ma'lumotlar foydali bo'ladi.

Hisobotda yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan daromad va xarajatlar haqida tushuntirishlar berish, investorlarga, boshqaruv va boshqa manfaatdor tomonlarga aniqroq tasavvur beradi.

Buxgalteriya tizimini avtomatlashtirish - Foyda yoki zarar hisobotini tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish va raqamli tizimlardan foydalanish orqali xatoliklarni kamaytirish va hisobotning samaradorligini oshirish mumkin.

Bu jarayonni avtomatlashtirish, vaqtni tejashga va hisobotlarni tezroq tayyorlashga yordam beradi. Ayniqsa, o'z vaqtida va to'g'ri hisobotlar chiqarish, kompaniyaning strategik qarorlarini qabul qilishda tezkorlikni oshiradi.

Hisobotning vaqtida va muntazamligi - Foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotlar muntazam va o'z vaqtida taqdim etilishi kerak. Bu nafaqat ichki boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi, balki tashqi investorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga kompaniyaning moliyaviy holati haqida to'g'ri vaqtda aniq ma'lumot beradi.

Foyda yoki zarar hisobotlarini tayyorlashda kvartal va yillik davrlarni belgilab, har bir davr uchun alohida hisobotlar ishlab chiqish zarur.

O'zgarishlarni tahlil qilish - Hisobotda o'zgarishlar tahlilini amalga oshirish, masalan, o'tgan davr bilan solishtirganda daromadlar va xarajatlar o'zgarishini ko'rsatish, foyda yoki zarar miqdoridagi o'zgarishlarning sabablarini izohlash kerak. Bu kompaniyaning faoliyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va qaysi sohalarida yaxshilanish kerakligini ko'rsatadi.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromad to'g'risidagi hisobotlarni takomillashtirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish, hisobotlarning aniq va to'g'ri bo'lishini ta'minlash uchun zarur. Hisobotlarni avtomatlashtirish, qo'shimcha axborotlarni kiritish va xavf-xatarlarni boshqarish orqali kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, tizimli ravishda tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va investorlar uchun to'g'ri va aniq ma'lumotlarni taqdim etish uchun bu hisobotlar yanada mukammal bo'lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi №54-sonli qarori.

4. Davlat ulushi bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif – T.: "MOLIYA", 2010 -272 b.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 y. 555 Раздаточный материал по курсу повышения квалификации: «Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). O'zbekiston auditorlar palatasi. Tashkent-2015. 335-bet.